

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 51 (1650), 2026-yil 17-mart, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

MAMLAKATIMIZ QUDRATINI, SANOATIMIZ SALOHİYATINI
MUSTAHKAMLOVCHI YIRIK VA ZAMONAVIY MAJMUA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 16-mart kuni Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrif buyurib, 3-mis boyitish fabrikasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari mis konsentratini ishlab chiqarish jarayoni va kombinatda tashkil etilgan Raqamlashtirilgan boshqaruv markazi faoliyati bilan tanishdi, togʻ-kon sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish chora-tadbirlari yuzasidan yigʻilish oʻtkazdi.



Oʻzbekistonimiz tabiati betakror. Yana zaminimiz boyliklari bisyor. Tabiatning bu in’omi biz uchun katta imkoniyat, katta imtiyoz. Bugungi kunda ana shu zaxiralardan olinayotgan noyob mahsulotlar sanoatning turli tarmoqlari rivojiga, iqtisodiyotimiz barqarorligiga, odamlar turmushi farovonligiga xizmat qilmoqda.

Olmaliqning asosi va drayveri Olmaliq kon-metallurgiya kombinati boʻlsa, undagi har bir loyiha mamlakatimiz iqtisodiyoti va taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshadi. Ohangaron daryosi sohilida, Qurama va Chotqol togʻ tizmalari boʻyida joylashgan bu manzildagi ishlar, yangi loyihalar, oʻzgarishlar

koʻlami, ayniqsa, keyingi yillarda yanada kengaydi.

3-mis boyitish fabrikasi shunday egzu maqsad yoʻlidagi sa’y-harakatlar samarasidir. Bugun oʻta zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari bilan jihozlangan va mehnat qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan ushbu majmua oʻmi bir necha yil avval quruq joy edi. Kelgusida bu yerda zamonaviy ishlab chiqarish majmuasi barpo etilishi hech kimning tasavvuriga ham sigʻmasdi.

Bundan sakkiz-toʻqqiz yil avval Oʻzbekistonda bunday loyihalar amalga oshirilishiga nafaqat xorijliklar, baʼzan oʻzimiz ham ishonavermasdik. Ammo

vaqt hakam. Oʻtgan davrda koʻryapmizki, Prezidentimizning qatʼiy irodasi, uzoqni

koʻra bilish siyosati, yangi Oʻzbekiston xalqi farovonligi yoʻlidagi tashabbuslari tufayli bugun har bir sohada katta oʻzgarishlar roʻy beryapti. Endi investorlar Oʻzbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga shoshilmoqda. Imkon qadar tezroq hamkorlik qilishga intilmoqda. Shu bois, soʻnggi paytlarda yurtimizda sanoat, energetika, infratuzilma, servis sohalarida koʻplab yirik loyihalar ishga tushirilmoqda. Oxirgi toʻqqiz yilda konlarni investorlarga berish boʻyicha shaffof tizim yaratilgani sababli 10 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilgani, ayni

paytda ushbu yoʻnalishda 65 ta xususiy korxona faoliyat yuritayotgani buning yorqin tasdiqʼidir. Natijada tarmoqda ishlab chiqarish 1,7 barobar oʻsib, oʻtgan yilda 270 trillion soʻmga yetdi. Sanoat hajmi va byudjetga tushumning toʻrtidan biri ushbu tarmoq hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Eng muhimi, hozir yuqori maosh olayotganlar ham ayni shu tarmoq korxonalarida. Qolaversa, ilgari biz qimmatbaho va rangli metallarni chetga, asosan, xomashyo sifatida sotgan boʻlsak, endi yiliga 100 ming tonna mis oʻzimizda qayta ishlanib, undan yuqori qiymatli mahsulotlar yaratilmoqda. Joriy yilning oʻzida roʻyobga chiqarilgan loyihalar hisobiga misni chuqur qayta ishlash quvvatlari 240 ming tonnaga yetkaziladi. Yaqin ikki-uch yilda bu koʻrsatkich yanada koʻpayadi. Demak, hali oldinda yangi loyihalar bor.

Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu loyiha bugungi davrning eng muhim va zarur tashabbusidir. Davlatimiz rahbari 2021-yilning 29-iyul kuni Olmaliq kon-metallurgiya kombinati negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish ishlari bilan tanishish chogʻida “Yoshlik-1” konini oʻzlashtirish dasturi doirasida yangi quvvat — 3-mis boyitish fabrikasiga tamal borayotgan paytda eng oqilona va uzoqni oʻylab qilingan katta qadam boʻldi.

Bugun yangi Oʻzbekiston iqtisodiyoti dunyo iqtisodiyotiga tobora integratsiya boʻlib bormoqda. Dunyo bozori mahsulotlarimizni kutmoqda. Dunyoda rangli metallarga talab kun sayin ortmoqda. Buni marosim chogʻida Prezidentimiz ham alohida taʼkidlab, “Kimki mis sanoatida yuqori qiymat zanjirini yaratsa, kelajak sanoatini barpo etgan boʻladi. Qaysi davlat bu xomashyoni chuqur qayta ishlash uchun kuchli infratuzilma yaratsa, u minglab oilalarga daromad, hududlarga taraqqiyot, mamlakatga qudrat olib keladi. Shu bois, biz islohotlarimizning ilk kunlaridan geologiya-

qidiruv ishlariga alohida eʼtibor qaratib, mavjud zaxiralar va ularni ishga solish boʻyicha imkoniyatlarimizni belgilab oldik”, dedi.

Zamonaviy dunyoda mis haqida gap ketganda, bugun ehtiyoj ortib borayotgan elektromobillar, har kuni foydalanayotganimiz maishiy texnika vositalari alohida tilga olinadi. Chunki ularning asosiy xomashyosi shu nodir metall. Yuqori issiqlik va elektr oʻtkazuvchanligi, korroziyaga chidamliligi va ishlovga osonligi kabi noyob xususiyatlari uni koʻp ishlatiladigan ashyoga aylantirgan. Qadimdan odamlarga foyda keltirgan misga talab iqtisodiy va texnologik rivojlanish tufayli asta-sekin oʻsib bormoqda. Eng muhimi, mana shunday muhim xomashyo bizda bor. Zaminimiz bagʻridagi mis ham boylik, katta mablagʻ, sarmoyadir. “Yoshlik-1” konidan joriy yilning oʻzida 20 million tonna ruda qazib olinadi. Bu raqam kelgusi ikki yilda 60 million tonnaga yetadi.

Umuman, “Yoshlik-1” va “Qalmoqqir” konlarida 45 million tonna mis, 5 ming tonnadan ziyod oltin zaxirasi borligi, u sanoatga kamida 100 yilga yetadigan kafolati xomashyo bazasi ekani diqqatga sazovordir. Jahonning eng ilgʻor texnologiyalari hamda yuqori sifat standartlari asosida ishga tushirilgan 3-mis boyitish fabrikasi ana shu boylikni yanada koʻpaytirishga, mablagʻni foydaga aylantirishga xizmat qiladi. Fabrikada Metso, FLSmidth, Weir Minerals va Siemens kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari texnologiyalari joriy etilgan. Ishlab chiqarish jarayoni Siemens PCS 7 va AVEVA PI Vision raqamli platformalari orqali boshqarilib, 20 mingdan ortiq uskunani yagona tizimda monitoring qilish imkonini beradi. Markaziy dispetcherlik boshqaruv punkti orqali energiya sarfi, ruda isteʼmoli, suv taʼminoti va texnologik jarayonlar doimiy nazorat qilinadi. Bu esa xavflarni barvaqt aniqlash, rejdian tashqari toʻxtalishlarni kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan fabrika kon-metallurgiya sohasidagi strategik ahamiyatga ega yirik sanoat obyektlaridan biridir. Yaʼni u Chilidagi

yiliga 131 million tonna mis-molibden boyitish quvvatiga ega Cerro Verde fabrikasi, yiliga 128 million tonna quvvatli Escondida, 69 million tonna quvvatli Los Pelambres, 77 million tonna quvvatli Collahuasi, Perudagi 62 million tonna quvvatli Toromocho kabi majmualar qatoridan joy oladi. 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushirilishi jahon bozorida mis narxi oʻsishi tendensiyalaridan samarali foydalanish, Oʻzbekistonning eksport daromadini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda milliy iqtisodiyotda mis klasterini tizimli rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2025-yil 30-mart kuni fabrika ilk sinov tariqasida ishga tushirilgan edi. Bugungi kunga qadar “Yoshlik-1” konidan qazib olingan 2,8 million tonnadan ortiq maʼdan dastlab kon hududida maydalash bosqichidan oʻtkazilib, fabrikaga yetkazildi. Natijada 40 ming tonnadan ziyod mis konsentratini ishlab chiqarilib, mis eritish zavodiga yuborildi.

Fabrika toʻliq quvvatga chiqqanidan soʻng 4000 ga yaqin yangi ish oʻrni yaratiladi. Hozir 1404 xodim faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati yosh mutaxassislar. “Muhandislar maktabi” va “Olmaliq KMK” AJ tarkibiy boʻlinmalarida amaliy tayyorgarlik va malaka oshirish kurslarini oʻtamoqda.

3-mis boyitish fabrikasi qurilishida 23 mingdan ziyod quruvchi va mingdan ortiq maxsus texnika ishtirok etdi. Qurilish jarayonida 789 ming kub metr beton, 109 ming tonna armatura, 69 ming tonna texnologik uskuna va 65 ming tonna metall konstruksiya montaj qilindi. Shuningdek, 299 ming metr texnologik quvur, 1,54 million metr elektr kabeli va 930 ming metr avtomatlashtirish kabellari yotqizildi.

Mutaxassislar fabrikani megaloyiha sifatida eʼtirof etmoqda. Buni quyidagi taqqoslar bilan izohlashmoqda. Yaʼni uning qurilishida ishlatilgan metall konstruksiyalar hajmiga teng materialdan 10 ta Eyfel minorasi, temir-beton sarfiga esa qariyb 2,5 ta Burj Xalifa minorasini barpo etish mumkin.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA
QOZOG‘ISTON
YETAKCHILARI TELEFON
ORQALI MULOQOT
QILDILAR

Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
16-mart kuni Qozogʻiston Respublikasi
Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan
telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Qozogʻiston Prezidentini yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi boʻyicha referendum muvaffaqiyatli oʻtkazilgani bilan samimiy tabrikledi.

Qabul qilingan yangilanishlar Qozogʻistonning barqaror taraqqiyotini taʼminlash va mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga ishonchli huquqiy asos boʻlishi va qoʻshimcha surʼat bagʻishlashi taʼkidlandi.

Oʻzbekiston — Qozogʻiston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ham koʻrib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor sohalarda qoʻshma loyiha va dasturlarni ilgari surishga alohida eʼtibor qaratildi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar, boʻljak ikki va koʻp tomonlama tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

Davlat rahbarlari, shuningdek, birodar xalqlarimizni yaqinlashib kelayotgan Ramazon hayiti va Navroʻz bayrami munosabati samimiy qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va bardavom ravnaq tiladilar.

OʻZA



Farovonlik xaritasi

YANGI O‘ZBEKISTON
QIYOFASIDAGI MAHALLALARIMKONIYAT VA IZCHIL
YUKSALISH KAFOLATI

Yangi Oʻzbekiston mahallalari tubdan yangilanmoqda. Bir paytlar turli maʼlumotnoma berishdan nariga oʻta olmagan tuzilma bugun mahallalarni joyida hal qilmoqda. Endi ana shu imkoniyatlar yanada kengayib, mahallaning iqtisodiy, ijtimoiy salohiyati oshirilmoqda. Sodda aytganda, barcha mahalla har bir jabha va yoʻnalishda yangi Oʻzbekistonga munosib qiyofa kasb etyapti. Mazkur ishlarda Prezidentimizning “Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi uchun namunalı hududga aylantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori muhim dasturilamal boʻlib xizmat qilyapti.



Xususan, Fargʻona viloyati Rishton tumanidagi “Boʻston” mahalla fuqarolar yigʻiniga “Yangi Oʻzbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berildi. Yangi loyiha qishloq meʼmoriy qiyofasi, odamlar hayot tarziga yangicha ruh, koʻtarinkilik olib kirdi. Tashabbus doirasida mahalla aholini shu joyning oʻzida ish bilan band boʻlishini taʼminlaydigan namunali maskanga aylantiriladi.

Davomi 3-betda

OLMALIQ
OLQISHI

Olmaliqning tuprogʻida oltin gullar,
Havas bilan boqib turar qancha ellar,
Dil shodlanar, shukronadan yayrar tillar,
Yer usting-u yer osting ham maʼdanga kon,
Qudratingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

Har qarichi xazinali diyorimsan,
Quyoshi hech soʻnmas mangu bahorimsan,
Baxt boʻyniga taqib olgan tumorimsan,
Oʻzing gavhar, oʻzing javhar, oʻzing marjon —
Hayratingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

Dunyo bugun qoloqlarga nazar solmas,
Puli yoʻqning salomiga alik olmas,
Kimning zar-u tillosi bor — beli tolmaz,
Tangri ato etgan aziz sohibdavron —
Shuhratingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

“Yoshlik-1” bu — shaxt-u gʻayrat koni erur,
Hur Vatanning qalqoni-yu shoni erur,
“Siti”larning tomirdagi qoni erur,
Har kun koʻrsam, har kun boʻlsam kerak hayron,
Shiddatingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

Olmaliq bu — yangi imkon, yangi marra,
Yurt mulkidir, tonnadan to kichik zarra,
Qayerda bor oltmish million degan karra,
Uchinchi mis boyituvchi qutlugʻ oshyon,
Haybatingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

Ilmu irfon, texnikalar asridir bu,
Boylik emas, maʼrifatning bahsidir bu,
Kelajakning ishonch degan qasridir bu,
Oʻzbek bilan hisoblashar bu kun jahon —
Davlatingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

Tinchlik boʻlsin, dorilamon zamon boʻlsin,
Yurtboshim ham, yurtdoshim ham omon boʻlsin,
Olmalgʻing oltinga liq makon boʻlsin —
Har oningda asrab turish qodir Rahmon,
Chin baxtingga koʻz tegmasin, Oʻzbekiston!

Mahmud TOIR,
Oʻzbekiston xalq shoiri



MAMLAKATIMIZ QUDRATINI, SANOATIMIZ SALOHİYATINI MUSTAHKAMLOVCHI YIRIK VA ZAMONAVIY MAJMUA

Boshlanishi 1-betda

Olmalik, xususan, uning yuragi — Olmalik kon-metallurgiya kombinati haqida eshitmagan, bilmagan inson oramizda topilishi mushkul. Keyingi yillarda ushbu manzilda amalga oshirilayotgan ulkan loyihalar nafaqat oddiy yurtdoshlarimizni, balki shu yerda ko'p yillar mehnat qilgan insonlarni, soha mutaxassislari hayratini oshirayotgani ham rost. Axir bunday yirik loyihani qisqa fursat ichida ro'yobga chiqarishning o'zi katta mo'jiza. Buni tantanali marosimga kelgan har bir kishi so'zidan bildirib, ko'zidan, hayajonidan sezdirib turadi.

— O'n sakkiz yil kombinatning rux zavodida mehnat qilib, shu yerdan nafaqaga chiqdim, — deydi mehnat faxriysi Xolmamat Umonov. — Bugun bu yerda mehnat qilayotgan shogirdlarimga, yoshlarga havasim kelib turibdi. Chunki o'ta zamonaviy tarzda ko'z o'ngimizda qad rostlagan ushbu fabrika yoshlarga katta imkoniyat yaratib berdi. Ham doimiy daromadli bo'lish, ham ishlash, ilg'or texnologiyalarni boshqarish nuqtayi nazaridan. Qolaversa, ular o'z mehnati orqali O'zbekistonni dunyoga yanada yaqinroq tanitadi. Sababi, hozir O'zbekistonda, xususan, kombinatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar dunyo bozorida xaridorgir. Katta o'g'im izimdan borgan. Kombinatda ishlaydi. Bugun u va safdoshlarining baxti davlat ularni qadrlayotganida, munosib mehnat sharoiti yaratib berilganida. Bu juda katta gap.

Olmalik kon-metallurgiya kombinati mis-molibden, polimetall va oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi. Mis mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha esa dunyodagi 30 ta yirik korxonadan biri. Bugungi kunda kombinat tarkibiga 6 ta konchilik korxonasi, 5 ta boyitish fabrikasi, mis eritish va rux zavodlari, markaziy ta'mirlash-mexanika zavodi, ohak zavodi, sanoat temir yo'l transport boshqarmasi, avtomobil va texnologik transport boshqarmalari, iste'mol mollari ishlab chiqarish boshqarmasi, shuningdek, 20 dan ortiq yordamchi sex va laboratoriya kiradi. Ularda 35 mingdan ziyod ishchi-xodim faoliyat yuritadi. Yiliga 148 ming tonnadan ortiq mis katodi, 90 ming tonna rux, shuningdek, oltin va kumush, molibden kuyindisi, reniy, selen, tellur va kadmii kabi metallar ishlab chiqariladi.

Kombinatning ma'dan zaxiralari "Qalmoqgir", "Sariqcho'qqi", "Yoshlik-1"

“

Zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv va inson kapitali uyg'unligi asosida barpo etilgan yirik sanoat majmuasi — 3-mis boyitish fabrikasi O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatining yangi bosqichga ko'tarilayotganiga yorqin misol bo'ladi.



ochiq konlari va 4 ta yer osti konida joylashgan. "Yoshlik-1" va "Qalmoqgir" konlari birlashishi natijasida dunyoda ma'dan tarkibida oltin hajmi bo'yicha eng yirik kon deya tan olinan.

"Yoshlik-1" konini o'zlashtirish investitsiya loyihasi O'zbekiston tarixidagi eng yirik ishlardan biri bo'lib, uni bejiz "asr loyihasi" deyishmaydi. Mazkur konning ochilishiga ham davlatimiz rahbari tomonidan start berilgan edi. "Yoshlik-1" konini qurish bo'yicha loyiha boshidan buyon 248,9 million kub metr kon yuzasini ochish ishlari bajarildi. Konning uzunligi 4 kilometr, eni 2,3 kilometr va chuqurligi 250 metrga yetdi. 45,6 kilometr uzunlikdagi temir yo'l yotqizilib, elektrlashtirildi. Hozir konda 400 ta texnika ishlamoqda. Uzunligi 4,2 kilometr bo'lgan magistral konveyerlar ma'danni 3-mis boyitish fabrikasi xomashyo omboriga tashishga tayyorlandi. Uning o'ziga xos jihatlaridan biri — yer relyefidan kelib chiqqan holda balandligi 44 metr bo'lgan ko'priq orqali o'tadi. Konveyer liniyasida ma'danni tashish tezligi sekundiga 4 metrni tashkil etadi.

Dunyoda kechayotgan o'zgarishlar yanada yuqori marralarni ko'zlashni, doimiy

izlanish va rivojlanishda, harakatda bo'lishni taqozo etadi. Zamonaviy texnologiyalar, raqamli boshqaruv va inson kapitali uyg'unligi asosida barpo etilgan yirik sanoat majmuasi — 3-mis boyitish fabrikasi O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatining yangi bosqichga ko'tarilayotganiga yorqin misol bo'ladi.

Marosim yakunida davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, fabrika faoliyatiga start berdi.

Prezidentimiz Olmalik kon-metallurgiya kombinatida barpo etilgan mis konsentratini filtrlash korpusida ham bo'ldi. 3-mis boyitish fabrikasi tarkibidagi korpus yiliga 917 ming tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqarish quvvatiga ega. Zamonaviy sanoat press-filtrlari, nasos agregatlari, shlam va suv aylanma tizimlari o'rnatilgan. Uskunalar xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarilgan bo'lib, yuqori samaradorlik va energiya tejamkorligi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda qurilish to'liq yakunlanib, korpusdagi jami 5 ta press-filtrdan 3 tasi to'liq ishga tushirilgan, yana 2 tasi ishga tushirishga hozirlanmoqda.

Filtrlash korpusida flotatsiya jarayonidan kelgan mis konsentratini qabul qilish, quyultirish va filtrlash, tindirilgan suvni

ajratish va qayta ishlab chiqarishga qaytarish, tayyor mis konsentratini saqlash yoki keyingi qayta ishlash bosqichiga uzatish kabi texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

Davlatimiz rahbari ularning ish jarayoni va tayyor mahsulotni ko'zdan kechirdi, ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdi.

Shu yerning o'zida Prezidentimiz ishtirokida mis konsentratidan namunalar olish marosimi o'tkazildi. Namunalar 2 ta alohida idishga solinib, kombinat muzeyi va poytaxtimizdagi Davlat geologiya muzeyiga yuborildi.

Shundan so'ng Prezidentimiz kombinatning Raqamlashtirilgan boshqaruv markazi faoliyati bilan tanishdi. Mazkur markaz kombinatning 1-, 2- va 3-mis boyitish fabrikalaridagi ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, samaradorlikni oshirish va uzluksiz monitoringni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Zamonaviy raqamli boshqaruv tizimlari, katta ekranli monitoring panellari, videokuzatuv vositalari, shuningdek, Siemens PCS 7 va AVEVA PI Vision platformalari orqali maydalash, flotatsiya, quyultirish, filtrlash, reagentlar bilan ta'minlash, texnologik suv ta'minoti, sexlar va transport tizimi faoliyati real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda. Boshqacha aytganda, ushbu markaz fabrikaning o'ziga xos miyasi bo'lib, yigirma mingdan ziyod uskuna yagona axborot tizimiga ulangan. "Aqlli" kameralar orqali dastlabki monitoring amalga oshiriladi, sun'iy intellekt yordamida esa anomal holatlar avtomatik tarzda aniqlanadi. Bu esa ma'lumotlarni yagona axborot tizimi orqali tahlillash va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

— Hozirgi kunda kombinatdagi 400 tadan ortiq transport vositasiga avtomatlashtirilgan tizim o'rnatilgan, — deydi Raqamlashtirilgan boshqaruv markazining kon transporti kompleksi boshqaruvni avtomatlashtirilgan tizimi boshlig'i Davron Uzoqov. — Bu, umuman, barcha jarayonning raqamlashtirilishi ish unumi va sifatida katta yordam berdi. Qanday qilib? Bir misol keltiraman. Aytaylik, yuk ortilgan mashina qanaqa tezlikda yurgani, yuk qaysi manzildan qaysi manzilga olib ketilayotgani, bir smenada qancha ish bajargani haqidagi savollar tahlil qilib boriladi. Mana shu ishning o'zi o'n foiz vaqt tejash imkonini berdi. Bu yiliga 1,5 million dollar degani.

Kombinatda bu kabi ishlar izchillik kasb etgan. Shu yerda davlatimiz rahbariga kombinatning ishlab chiqarish va texnologik

jarayonlarini yanada raqamlashtirish bo'yicha rejalar taqdimot qilindi.

Qayd etilganidek, konda ma'dan qazib olishdan boshlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha jarayonlar bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Kelgusi besh yilda har bir bosqichga sun'iy intellekt yechimlarini keng joriy etish ko'zda tutilgan.

Sakson yil davomida to'plangan geologik va marksheyderlik ma'lumotlari asosida konlarni raqamlashtirish ishlarining borishi haqida ham axborot berildi. Jumladan, "Raqamli kon" tizimi kunlik, haftalik va oylik qazish ishlarining aniq yo'nalishlarini belgilash imkonini bermoqda.

Sun'iy intellekt asosida karyer yo'llari holati nazorat qilinmoqda, yuk tashish mashinalari shinalarining bosimi va harorati datchiklar orqali kuzatib borilmoqda. Ana shunday doimiy monitoring natijasida shinalarning xizmat muddati 14 foiz oshirilgan.

Prezidentimiz Olmalik kon-metallurgiya kombinatiga tashrif doirasida tog'-kon sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, robototexnika, energetika, elektrotexnika, kimyo va mudofaa sanoati kabi strategik tarmoqlarni jadal rivojlantirish ko'p jihatdan mis, uran, litiy, volfram va boshqa muhim metallar bazasiga tayanadi. Dunyo bozorlarida mazkur resurslarga talab oshib borayotgani, jumladan, mis konsentrat bozorida taqchillik kuchayib, narxlar o'sishi kutilayotgani tog'-kon va metallurgiya sohasidagi loyihalarni tezlashtirishni yanada dolzarb qilib qo'yarmoqda.

Hozirgi kunda energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda esa, ayniqsa, ko'mir qazib chiqarish va uni qayta ishlash loyihalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisi, yig'ilishda bu boradagi ishlarni jadallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Aholi va sanoat korxonalariga ko'mir yetkazib berish hajmini oshirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Shu munosabat bilan 2030-yilga qadar O'zbekistonda oltin ishlab chiqarishni 175 tonnaga, kumushni 500 tonnaga, uranni 15 ming tonnaga, misni 500 ming tonnaga yetkazish bo'yicha belgilangan marralarga erishish uchun barcha imkoniyatlarni to'liq safarbar etish zarurligi qayd etildi.

Bu borada har bir yirik loyihani aniq jadval asosida amalga oshirish, moliylashtirish, qurilish, logistika, texnologik jihozlash va kadrlar bilan ta'minlash masalalarini o'zaro uyg'unlikda hal qilish muhimligi ko'rsatib o'tildi. 3-mis boyitish fabrikasining keyingi navbatlarini jadallashtirish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda, shuningdek, Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati doirasida "Muruntov" konini kengaytirishning navbatdagi bosqichi, yangi konlarni o'zlashtirish, murakkab rudalardan oltin ajratib olish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, ayrim yirik loyihalar bo'yicha investorlar bilan hamkorlik mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Metallurgiya yo'nalishida "O'zmetkombinat"da ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki xomashyo bazasidan samarali foydalanish, raqobatbardosh mahsulot turlarini ko'paytirish, bozor talabiga mos metall listlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, mazkur loyihaning texnologik davomi hisoblangan yangi mis eritish zavodini barpo etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Unda texnik-iqtisodiy asosni yakunlash, xorijiy ekspertlarni jalb qilish, qisqa muddatlarda qurilish ishlarini boshlash yuzasidan mas'ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

Olmalik kombinatining istiqboldagi ehtiyojlaridan kelib chiqib, 4-mis boyitish fabrikasi bo'yicha texnik-iqtisodiy asosni ishlab chiqish uchun nufuzli xalqaro kompaniyalarni jalb etish vazifasi alohida ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilish yakunida tog'-kon, metallurgiya, kimyo va neft-gaz kabi bazaviy tarmoqlarda yirik loyihalar ijrosini tizimli nazorat qilish maqsadida Prezidentimiz rahbarligida Sanoat kengashi tuzilishi ma'lum qilindi. Ushbu kengash doirasida yirik korxonalarni xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, tannarx va energiya sarfini kamaytirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, mahalliy kontentni oshirish, barcha jarayonlarni raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, investitsiya va eksportni ko'paytirish bo'yicha oylik ish rejaları tasdiqlanadi.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



RAQOBAT MIQDOR BILAN EMAS unumdorlik va sifat bilan belgilanadi



Mamlakatimizda ipakchilik va pillachilik aholini daromadli ish bilan ta'minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston ipak ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi mamlakatlardan. Bu esa sohani kompleks rivojlantirish, barcha bo'g'inini o'zaro uyg'unlashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bundan samarali foydalanish uchun, avvalo, pilla yetishtiruvchi fermerning o'rni va maqomini qayta ko'rib chiqish zarur. U ishlab chiqarish janrining eng zaif bo'g'inini bo'lib qolmasligi, balki iqtisodiy munosabatlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylanishi lozim.

Yangi modelning zarurligi shundaki, u shaffof narx belgilash tizimi, uzoq muddatli shartnomalar va daromadni xomashyo sifatiga muvofiqlashtirishi lozim.

Bu raqobatni hajm bo'yicha emas, balki mahsulot standarti bo'yicha rag'batlantirishga xizmat qiladi. Jahon bozori talablaridan kelib chiqsak, aynan ipak parametrlarining barqarorligi premium segmentga chiqish imkoniyatini belgilaydi.

Ushbu jarayonda resurslarni jamlash ham juda muhim. Zamonaviy tarmoqlar, laboratoriya nazorati va quritish infratuzilmasiga ega, ixtisoslashtirilgan markazlarini shakllantirish texnologik intizomni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Xomashyo bazasini yangilash alohida yo'nalishdir. Tut daraxtiga strategik ekin sifatida qarash lozim. Bu, albatta, tizimli parvarish, seleksiya va uzoq muddatli rejalashtirishni talab etadi. Ko'chat yetishtirish, uning agrotekhnologiyasiga kiritilgan sarmoya bir necha yil davomida samara beradi. Aynan shu omillar butun tarmoq barqarorligini belgilaydi. Ustuvor vazifalardan biri mamlakatda qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat.

Prezidentimiz huzurida joriy yil 17-fevral kuni ipakchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan qilingan taqdimotda ko'zda tutilgan vazifalar ham soha rivojiga xizmat qiladi.

— Taqdimotda pillachilik tizimidagi barcha bosqich ko'rib chiqildi. Bunda asosiy e'tibor ozuqa bazasi, urug'chilik, pilla va ipakchilik bilan shug'ullanayotgan aholini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlariga qaratildi, — deydi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi direktori Nozim Xolmurodov. — Shuningdek, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi naslli urug'chilik stansiyalarida elita urug'lar tayyorlash, 10 ta ipak qurti urug'chilik korxonasiga qo'shimcha joriy yilda Buxoro va Namanganda 2 ta yangi urug'chilik korxonasi, 2027-2029-yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 4 ta yangi korxona tashkil etiladi.

Ipakchilik juda katta qo'shimcha qiymat yaratadigan soha hisoblanadi. Uni rivojlantirishdagi birinchi katta muammo — ozuqa bazasi. Qishloq xo'jaligi vazirligi ozuqa bazasini yaratish va yangi mexanizmlarni joriy etish, fermer va dehqon xo'jaliklariga sifati ko'chatlarni yetkazib berishi zarur.

Ikkinchisi, Ipakchilik ilmiy-tadqiqot institutida ipak qurti urug'ini yetishtirish bilan bog'liq. Hozir qariyb 70 foiz urug' import qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy genofondan to'liq foydalanilmayotganini anglatadi. Ayni maqsadda

molekulyar, genetik laboratoriyalar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, naslchilik va urug'chilik korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun ularga xorijiy malakali mutaxassislarni jalb etish, mavsumiy ishchilar mehnatiga haq to'lash xarajatining yarmini qoplab berish hamda ularning faoliyatini daromad va ijtimoiy soliq obyekt sifatida hisoblamaslik taklif qilindi.

Joriy yilda mamlakatimizda 250 mingdan ortiq xonadonda 30 ming tonnaga yaqin pilla yetishtirish rejalashtirilmoqda. Lekin pilla sifatini oshirish uchun ozuqa bazasini yaxshilash zarur. Shu maqsadda 2026-2030-yillarda ozuqa bazasi bosqichma-bosqich kengaytiriladi. Jumladan, 8000 gektarda yangi tutzorlar barpo etiladi. 41,5 ming gektar maydonda yakka qator tut ko'chatlari ekiladi. 15 ming gektardagi tutzorlar rekonstruksiya qilinadi. Natijada 2030-yilga qadar 200 million tup tut ko'chati ekilishi va ozuqa bazasi 30 foiz oshishi kutilmoqda.

Pilla yetishtirish hajmi ozuqa bazasini tahlil qilish asosida prognozlashtiriladi. Xususan, 2026-yilda 30 ming tonna, 2030-yilga borib 36 ming tonna pilla yetishtirish rejalashtirilmoqda.

Eng asosiy, sohadagi ishlar yangi tizim asosida tashkil etiladi. "O'zbekipaksanoat"

uyushmasi, viloyat va tuman "Agropilla" tuzilmalari, ipakchilik klasterlari o'zaro muvofiqlashtirgan tarzda faoliyat yuritib, yangi tutzorlarni barpo etishdan tortib, yetishtirilgan pillarni sotib olishgacha bo'lgan barcha bosqichda fermerlar, kasanachilar va qurt boquvchilar ishini tashkil etadi hamda ularga ko'maklashadi. Kam daromadli, ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni pillachilikka jalb etish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratiladi. Jumladan, joriy yildan boshlab "mahalla yetitilgi" orqali aholiga 1 kilogramm pilla qiymatining 35 foizi miqdorida subsidiya, parvarishlash jihozlari va uskunalar xaridiga 20 million so'mgacha ssuda ajratish yo'lga qo'yiladi.

Pillachilikda sanoat usulini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hozir pillaning asosiy qismi xonadon sharoitida yetishtirilmoqda. Lekin maxsus qurtxonalar tashkil etish orqali hajm va sifat barqarorligini ta'minlash mumkin. Bunda klasterlar tomonidan qurtxonalarini qurish va ishga tushirishni rag'batlantirish, jumladan, qurtxonalarini yer va mol-mulk solig'idan 2029-yil 1-yanvargacha qadar ozod qilish taklif etildi. Eksport va qo'shilgan qiymatni oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Ayni paytda mahalliy pilladan yuqori sifati xom ipak olish va uni qayta ishlash ulushi pastligicha qolayotgani qayd etildi. Sifatini oshirish va chuqur qayta ishlashni kengaytirish hisobiga eksport tushumini 250 million dollargacha oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Jumladan, 2030-yilga qadar umumiy qiymati 200 million dollarlik 21 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish xom ipakni qayta ishlash hajmini 3000 tonna va darajasini 75 foizga yetkazib, 18,5 million pogon metr ipak mato ishlab chiqarish imkonini beradi.

Yana bir muhim jihat. Sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish zarur. Ayni maqsadda ozuqa bazasining hisobi, korxonalar reyestri, sohadagi hisobotlar va hisob-kitoblarni elektron shaklda yuritish, urug'lik va pilla xomashyosi hajmlari, pilla qabul qilish punktlarini real vaqt rejimida monitoring qilish jarayonlarini qamrab olgan yagona axborot tizimi ishlab chiqiladi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri





Qiziriq tumanidagi Takiya va Kunchiqish mahallalarida ham “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” konsepsiyalari joriy etilmoqda. Xususan, besh mingdan ortiq aholi yashaydigan Kunchiqish mahallasida loyiha asosidagi ishlar bosqichma-bosqich davom etmoqda.

DAVR
NAFASI

3

2026-yil 17-mart, 51-son



Farovonlik xaritasi



YANGI O‘ZBEKISTON QIYOFASIDAGI MAHALLALAR

IMKONIYAT VA IZCHIL YUKSALISH KAFOLATI



“

SURXONDARYO VILOYATIDA “TARAQQIYOT VA YETAKCHILIK MASKANI” DASTURI DOIRASIDA 30 TA MAHALLA “YANGI O‘ZBEKISTON QIYOFASIDAGI MAHALLA” SIFATIDA TANLAB OLINGAN. LOYIHA DOIRASIDA HAR BIR MAHALLAGA 5 MILLIARD SO‘MDAN MABLAG‘ AJRATISH BELGILANGAN.



Boshlanishi 1-betda

“Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini Farg‘ona — Qo‘qon katta avtomobil yo‘li yoqasida joylashgan. Olti mingdan ortiq aholi umrguzaronlik qilayotgan mahallada yechimini kutayotgan masalalar bor. Hozirga qadar mahallaning mavjud infratuzilmasini yaxshilash bilan bog‘liq ehtiyojlar o‘rganilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha loyiha va dasturlar ishlab chiqildi.

Aholi va transport harakatlariga xalaqit beradigan binolar, qo‘lbola savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari o‘rniga zamonaviy me‘moriy yechimga ega bino-inshootlar qurilmoqda.

— Mahallamiz yangi O‘zbekiston qiyofasidagi manzil sifatida tanlanib, 5 milliard so‘m ajratilmoqda. Shu orqali aholi bandligi ta‘minlanib, kambag‘allikdan chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratiladi, — deydi “Bo‘ston” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Saminjon Ro‘ziboyev. — Mahallada 40 ta mikroloyiha ishga tushiriladi. Xususan, kichik ishlab chiqarish tarmog‘i kengayadi, savdo va xizmat ko‘rsatish ko‘payib, turizm, tomorqachilik, chorvachilik ishlari jadallashadi. Natijada reyestrda 23 ta oila kambag‘allikdan chiqariladi. Zamonaviy poliklinika, yoshlar sport-sog‘lomlashtirish majmualari quriladi. Markaziy ko‘chalarga o‘rindiqlar o‘rnatilib, 4 kilometr yo‘l asfalt qilinadi. Farg‘ona ko‘chasining 2 kilometriga to‘siqlar o‘rnatish, ariqlarga lotok yotqizish, yo‘l yoqasida yashil maydon yaratish ishlari bajarilmoqda. Iste‘mol yuqori bo‘lgan 15 ta uy-joyga energiya tejovchi muqobil qurilmalar o‘rnatilayapti. Mahalladagi ijtimoiy soha obyektlari DXSH asosida ta‘mirlanib, zamonaviy isitish tizimlari quriladi.

Mahalla ahli tomorqasiga “Rishton agro logistik” mchj, “Sherakhun” xususiy korxonasi bilan hamkorlikda eksportbop gulkaram, qizil va oqkaram ekilib, keyin eksport qilinadi. Tadbirkorlik dasturi doirasida “Biznesga birinchi qadam”, “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish” hamda “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturlari asosida jami 850 million so‘m imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish rivojlantiriladi. Xususan, “Bo‘ston mebellari” MCHJ tomonidan umumiy qiymati 2 milliard so‘m bo‘lgan “Yog‘ochga qayta ishlash berish” loyihasi start oladi. “Tillaboyev Zafarjon” oilaviy korxonasi tashabbusi bilan zamonaviy savdo va turizm tarmog‘i faoliyat boshlaydi.

— Uy sharoitida trikotaj ishlab chiqarish bilan shug‘ullanib kelyapmiz, — deydi tadbirkor Hayitxon Nuriddinova. — “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” mahallasi doirasida ishimizni kengaytirishga yo‘l ajratib berildi. Bu yerga 500 million so‘m samoyda kiritmoqchimiz. Natijada 10 dan ziyod ish o‘rni yaratiladi.

savdo markazi qurish tashabbusi bilan chiqdi. Bahromjon Sharofiddinov esa o‘quv markazi tashkil etyapti.

— Prezidentimiz qarori asosida Bo‘ston va Zohidon mahallalarida “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” konsepsiyasi amalga oshirilmoqda, — deydi Rishton tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Doniyor Rahmonqulov. — Hududlarni “taraqqiyot va yetakchilik maskani”ga aylantirish loyihalari ishlab chiqildi.

Loyihada savdo, servis va kichik ishlab chiqarish obyektlari, bo‘sh yer maydonlari, davlat mulki inshootlari, hunarmandlik, xizmat ko‘rsatish va mikrosanoat markazlarini tashkil etish imkoniyatlari hisobga olingan. Loyiha asosida nafaqat tanlangan mahallalar, balki

ularga qo‘shni hududlar aholisi ham ish bilan ta‘minlanib, tadbirkorlik kengayadi.

Bir so‘z bilan aytganda, bunday hayotbaxsh loyihalar natijasida hududlar har jihatdan obod bo‘lib, aholining tadbirkorlik salohiyati oshmoqda, ko‘plab ish o‘rinlari yaratilib, zamonaviy transformator, 50 ta beton ustun o‘rnatilmoqda. Muhimi, loyiha doirasida 20 ga yaqin tadbirkorlik tashabbusi amalga oshirilib, 70 ta yangi ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan. Bu esa Qahramon mahallasida ishsizlikni keskin kamaytirib, aholi turmush darajasini yaxshilaydi.

Sherobod tumanining qariyb 6 ming aholi yashaydigan Dehqonariq mahallasi obod bo‘lib ahamiyatidagi yo‘l bo‘yida joylashgan. Hozir u Novbiri, Hakimobod va Gulchinor mahallalari uchun ham markaz vazifasini o‘taydi.

Qo‘ng‘irot va Qahramon mahallalari tanlab olingan. Xususan, Qahramon mahallasida keng ko‘lamli obodonlashtirish va infratuzilmani yangilash jadal sur‘atda davom etayotir. Hududdagi 5,4 kilometr yo‘l ta‘mirlandi. Endi 1 kilometr ichimlik suv quvuri yangilanadi. Ikkinchi zamonaviy transformator, 50 ta beton ustun o‘rnatilmoqda. Muhimi, loyiha doirasida 20 ga yaqin tadbirkorlik tashabbusi amalga oshirilib, 70 ta yangi ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan. Bu esa Qahramon mahallasida ishsizlikni keskin kamaytirib, aholi turmush darajasini yaxshilaydi.

Sherobod tumanining qariyb 6 ming aholi yashaydigan Dehqonariq mahallasi obod bo‘lib ahamiyatidagi yo‘l bo‘yida joylashgan. Hozir u Novbiri, Hakimobod va Gulchinor mahallalari uchun ham markaz vazifasini o‘taydi.

Ushbu hududga ham “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” maqomi berilib, infratuzilma yaxshilanib, tadbirkorlik rivoj topadi. Aholi bandligi ta‘minlanadi.

Loyiha doirasida mahallada maktabgacha ta‘lim tashkiloti binosi, dam olish maskanlari, bolalar va sport maydonchalari, piyodalar hamda salomatlik yo‘lakchalari barpo etiladi. Hozir bu borada ishlar boshlangan. Shuningdek, yaqin kelajakda mahalla hududida kichik bozor, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, hunarmandlik ustaxonalari ochish rejalashtirilgan.

— Bir-birini to‘ldirgan dasturlar, loyihalar sabab ko‘z o‘ngimizda mahallamiz obod bo‘lib boryapti. Har kunimiz yangi bir tashabbus bilan boshlanmoqda, — deydi “Dehqonariq” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Ulfat Bozorov.



Bandlik

Kambag‘allikni qisqartirishda ARNASOY TAJRIBASI



“Mahalla islohotlar qayerda ishlayapti, qayerda to‘xtayapti, degan savollarga aniq javob beradigan asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Agar mahallada ishsiz odam yoki kambag‘al oila saqlanib qolayotgan bo‘lsa, demak, islohot o‘sha joyga yetib bormagan. Agar “yettilik” tizimi aholi muammosini hal qila olmayotgan bo‘lsa, demak, tizim ishlamayapti”. Bu so‘zlar davlatimiz rahbarining kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan iqtibos.

Darhaqiqat, mahalla jamiyatning nafaqat quyi bo‘g‘ini, balki eng muhim tayanch nuqtasi hamdir. Mahallalarda aholini ish bilan ta‘minlash, kambag‘allikni qisqartirish uchun yetarli imkoniyat mavjud. Hech shubhasiz, jamiyat taraqqiyoti, avvalo, mahallaning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligiga bog‘liq.

Bugun mahallani rivojlantirish deganda, birinchi navbatda, aholini ish bilan ta‘minlash, ular uchun barqaror daromad manbalarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, har bir qaror va dastur mahallada qanday o‘zgarish bo‘lishiga qaratilmog‘i lozim. Shu bois, kesimda ishlash — islohotlarning eng to‘g‘ri va samarali yo‘li.

Aholini ish bilan ta‘minlash faqat yangi korxonalar ochish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Mahallada mavjud imkoniyatlarni aniqlash, har bir oilaning salohiyatini o‘rganish, tomorqadan umumli foydalanish, xonadonda tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish orqali minglab odamlarni daromadli qilish mumkin. Bunda, darhaqiqat, “mahalla yetilligi”ning o‘rni beqiyos. Ular odamlarning dardini, imkoniyatini, muammosini yaxshi biladi.

Kambag‘allikni qisqartirish faqat ijtimoiy yordam degani emas. Bu, avvalo, mehnat orqali amalga oshirilishi kerak. Zero, kasbi, doimiy ishi va daromadi bor oila ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lmaydi. Shu bois, mahallada kambag‘allikka qarshi kurash ish o‘rni, qo‘llab-quvvatlangan tomorqa, o‘rgatilgan kasb bilan boshlanadi.

Bu borada hududlarda shakllanayotgan ilg‘or tajribalar mahallani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandlik, xizmat ko‘rsatish sohalarida mahalliy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ish yuritish aholining o‘z uy, o‘z mahallasida ishl bo‘lishiga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, odamlarda “men ham qila olaman” degan ishonch paydo bo‘lmoqda.

— Prezidentimiz Arnasoyda chorvachilik yo‘nalishiga qilinayotgan ishlarni alohida e‘tirof etdi, — deydi Arnasoy tumani hokimi Odil Musanov. — Tumanimiz tajribasi boshqa hududlar uchun namuna sifatida qayd etilgani, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish va ularni keng ommalashtirish zarurligiga urg‘u berilgani biz uchun dasturlamal bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda tumanda xonadonlarda naslli chorvachilikni rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Xususan, 2024-yilda aholi xonadonlarini o‘rganish jarayonida ko‘pchilik fuqarolarning imkoniyat va qiziqishlari chorvachilikka to‘g‘ri kelishi inobatga olinib, kam daromadli mahalliy chorva mollari parvarishidan yuqori daromad keltiruvchi naslli chorvachilikka o‘tish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqildi. Natijada 2024-yil noyabr oyiga

qadar 16 ta xonadonda 33 bosh naslli chorva mavjud bo‘lgan, targ‘ibot ishlari, seminarlar va amaliy ko‘maklar orqali esa so‘nggi bir yilda bu ko‘rsatkich 203 ta xonadonda 600 boshga yetkazildi.

Ushbu loyihani amalga oshirishda dastlab mustahkam ozuqa bazasini yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, 2024-yil oktyabr oyida “Mustang tog‘lari” va “Sangzor” fermer xo‘jaliklari tomonidan 600 tonna

silos ozuqasi jamg‘arildi. Ozuqa tayyorlashni mexanizatsiyalash maqsadida o‘tgan yili Xitoydan “Bashiran” rusumli 2 ta o‘rim kombayni olib kelindi. Shu orqali “Beruniy agrostar” kompaniyasi bilan hamkorlikda 3000 tonna silos jamg‘arildi. Bundan tashqari, g‘alladan bo‘shagan 45 gektar maydonga makkajo‘xori ekilib, 6000 tonna silos zaxirasi to‘plandi.

“Mustang tog‘lari” fermer xo‘jaligi orqali xonadonlardan sutni yig‘ib olib, har kuni markazlashgan holda 1500 litr sutni qayta ishlash sexlariga yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, tuman ichki bozorlariga kuniga ming litrga yaqin sut yetkazib berilmoqda.

Tahlillar ko‘rsatmoqdaki, o‘tgan bir yil davomida aholi xonadonlaridagi bir bosh naslli sigirdan o‘rtacha 60-65 million so‘mgacha daromad olingan. Bu daromadning 30-35 million so‘mi sut mahsulotlari, 28-30 million so‘mi esa bir yoshli buzoq hisobiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bugungi kunda ham ushbu ishlar izchil davom ettirilayapti. Xususan, 2026-yil 23-yanvar kuni “Sangzor” fermer xo‘jaligi tomonidan Germaniyadan yana 60 bosh naslli sigir olib kelindi.

Joriy yil yakuniga qadar naslli chorva parvarish qilayotgan aholi xonadonlari sonini 1000 taga, naslli mollar sonini esa 3000 boshga yetkazish rejalashtirilgan.

Xotin-qizlar bandligini ta‘minlash masalasi ham Jizzax viloyatida ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Misol uchun, Zarbdor tumanidagi xotin-qizlarni kasbga yo‘naltirish markazlarida tikuvchilik,

Joriy yilning Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili deb nomlanishi ham tizimdagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, mahalla asliyatga qaytib, odamlarni birlashtirgan, ularning hayoti, orzu-umidlari, quvonch va tashvishlarini o‘zida mujassam etgan muqaddas maskanga aylanib boryapti.

Rasuljon KAMOLOV,
Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari

tadbirkorlik va hunarmandlik yo‘nalishlarida ayollarning olgan bilimi ularning mustaqil daromad topishiga xizmat qilayotir.

“Nurafshon” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi, 6 farzandning onasi Muhabbat Sattorova uzoq yillar davomida mavsumiy va jismonan og‘ir bo‘lgan dala ishlarida mehnat qilib kelgan. Biroq bunday ishlar barqaror daromad manbai bo‘lmagan, ayniqsa, ayol kishi uchun qator qiyinchiliklar tug‘dirishi inobatga olinib, “mahalla yetilligi” tomonidan Muhabbat opaning doimiy ish bilan ta‘minlanishiga amaliy ko‘mak berildi.

Ayni paytda opa uy sharoitida qurur tayyorlash bilan shug‘ullanib, oilaviy byudjetga munosib hissa qo‘shmoqda. Ushbu faoliyat nafaqat barqaror daromad manbai, balki oila sharoitiga mos, ayol kishi uchun qulay mehnat turi sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda.

— Ilgari mavsumiy ishlar bilan kun ko‘rardik, mehnat og‘ir, daromad esa doimiy emasdi. Hozir esa o‘zim bilgan ish bilan shug‘ullanib, bolalarim tarbiyasiga ham, oilam daromadiga ham yetarlicha e‘tibor qaratyapman. Eng muhimi, ertangi kunga ishonch paydo bo‘ldi, — deydi Muhabbat opa.

Mazkur misol xotin-qizlarni kasbga yo‘naltirish, uy sharoitida mehnat qilish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi. Bu kabi tashabbuslar oilalar farovonligini oshirib, jamiyatda ayollarning o‘rni va mavqegini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Jizzax viloyatida aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlar Prezidentimiz belgilab bergan aniq vazifalarning joylardagi amaliy ifodasiga aylanmoqda. Bu islohotlar mahallada, xonadonda, odamlarning kundalik turmushida sezilayotgani bilan ahamiyatli. Endilikda har bir qarorning samarasi “mahallada nima o‘zgardi?” degan savol bilan o‘lchanadi. Bu yondashuvning mohiyati shundaki, kambag‘allikka qarshi kurash yuqoridan pastga tushiriladigan dastur emas, balki mahallada boshlanadigan amaliy harakatga aylanadi. Bu harakat esa kelgusida aholi turmush darajasini yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratishi shubhasiz.

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Rastalardagi qiymatlar, dorixonadagi preparatlar yoki kommunal xizmat kvitansiyasidagi summa — bular har bir oilaning turmush tarzi, byudjeti va kelajak rejasiga bevosita ta'sir qiladi. Narxlar izchil va taxmin qilinadigan muhitda aholi kelajakni rejalashtiradi, tadbirkor esa ishonch bilan sarmoya kiritadi. Natijada iqtisodiyot sifat jihatidan o'sish imkoniga ega bo'ladi. Shu bois, narx barqarorligi statistik ko'rsatkichdan ko'ra hayotiy ahamiyatga ega.

Ammo inflyatsiya kuchaygan sharoitda bu muvozanat izdan chiqadi. Oziq-ovqat, dori-darmon yoki kommunal xizmatlar narxining tez-tez o'zgarishi aholining kundalik rejalarga bevosita ta'sir qiladi. Daromadi cheklangan oilalar, birinchi navbatda, iste'mol xarajatini qisqartirishga majbur bo'ladi. Oddiy misol: o'tgan yili muayyan miqdordagi mablag'ga bir haftalik oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilingan bo'lsa, bugun o'sha pulga kamroq tovar olish mumkin. Bu holat pulning qadri pasayganini anglatadi. Ya'ni mablag' miqdori o'zgarmagan bo'lsa-da, imkoniyati qisqardi.

Shuningdek, inflyatsiya tadbirkor va ishlab chiqaruvchilar uchun ham og'ir muammo tug'diradi. Xomashyo va transport xarajati tez-tez o'zgarib turgan sharoitda mahsulot tannarxini aniq hisoblash qiyinlashadi. Bu esa yangi loyihalarga sarmoya kiritishda ehtiyotkorlikni kuchaytiradi. Uzoq muddatli innovatsion rejalarga qaratilgan, qisqa muddatli foydaga e'tibor ko'proq bo'ladi. Shu orqali iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan ham susayishi kuzatiladi.

Inson bugun mehnat qiladi va ertangi kunga ishonch bilan qarashni istaydi. Agar topgan mablag'ining qadri saqlanishiga ishonch bo'lsa, u jamg'aradi, reja tuzadi, sarmoya kiritadi. Agar ishonch susaysa, ehtiyotkorlik va ikkilanish kuchayadi. Shu bois, inflyatsiyani jilovlash makroiqtisodiy vazifa emas. Bu har bir xonadon dasturxonida barqarorlikni ta'minlash, bozorda tadbirkor uchun aniqlik va jamiyat ongida ishonchni saqlash masalasidir. Barqaror narx muhiti shakllanganda iqtisodiy o'sish raqamlarda emas, balki har bir oilaning turmushi, xarid qobiliyati va kelajakka ishonchida aks etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yashirin faoliyat ulushini qisqartirish, iqtisodiy o'sish sur'atiga to'siq bo'layotgan omillarni bartaraf etish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu borada, xususan, soliq ma'murchiligi isloh qilinmoqda va uni raqamli yechimlar asosida zamonaviy darajaga ko'tarish orqali iqtisodiyotdagi xufiyona aylanmalarni qisqartirish bo'yicha tizimli ishlar izchil bajarilayapti.

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy adolat va davlatga ishonch muhitini mustahkamlash bilan ham bog'liq. Hududlar va tarmoqlar bo'yicha qilinayotgan ishlar samaradorligini oshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlash hamda byudjet daromadini kengaytirish

maqsadida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ularning asosiy yo'nalishi — yashirin faoliyatni legalashtirish, soliq bazasini mustahkamlash va ichki zaxiralarni samarali ishga solishdan iborat.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu jarayonni tizimli va samarali amalga oshirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Farmon soliq organlariga iqtisodiyotdagi xufiyona aylanmalarni qisqartirish, soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirish va biznes muhitini rag'batlantirish uchun yangi imkoniyat va instrumentlar taqdim etadi.

Birinchidan, farmon mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka yetarli darajada yetkazilishi zarur. Shu maqsadda hududlarda aholi va tadbirkorlik subyektlari vakillari bilan uchrashuvlar tashkil qilindi, ularga yangi normalaming mohiyati va amaliyotda qo'llanishi tushuntirildi. Yangi tizimning foydali jihatlari sodda va tushunarli tarzda videorolik, infografika va boshqa vizual materiallar tarzida ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi, markaziy va mahalliy telekanallarga uzatildi.

Shuningdek, o'tgan davrda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot ishlarini faol olib borildi. Tadbirkorlik subyektlarining shaxsiy kabinetiga ham farmon talablari haqida xabaromalar yuborildi. Bu esa soliq to'lovchilarning yangi tizimga moslashuvini tezlashtirdi va ularning huquqiy ongini mustahkamladi.

Bunday tizimli chora-tadbirlar tufayli soliq organlari nazoratchi bo'lish bilan birga raqamli texnologiyalar va axborot vositalari orqali xizmat ko'rsatuvchi, tadbirkor va aholi uchun barqaror ishonch muhitini ta'minlovchi institutga aylandi. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali iqtisodiyotda aniq va shaffof jarayonlar rivojlanmoqda. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy poydevoridir.

Ushbu jarayon davlat va tadbirkorlikning o'zaro ishonch va hamkorlik asosida rivojlanishiga misol. Soliq ma'murchiligini raqamli yechimlar asosida takomillashtirish



SAMARALI MEHNAT MEXANIZMI

TADBIRKORLIK VA TEJAMKORLIKKA TAYANADI

Zafar Madrimov Amudaryo tumani Ayoqchi mahallasida tashkil etilgan sanoat zonasida o'nlab yoshlar bandligini ta'minlab kelmoqda. Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan tadbirkor un tegirmoni qurgan. Bundan tashqari, o'z mablag'i evaziga kuz-qish mavsumida polivch ekinlari va mevalarni saqlash uchun sendvich panellari zamonaviy sovitkich ham tashkil qildi. Bu tashabbus yosh tadbirkorning daromadini oshirish bilan birga hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash infratuzilmasini yanada yaxshilash, bozorda narx-navo barqarorligini ta'minlashga ham hissa qo'shmoqda.



Mahalliyashtirish

Tuman hokimligi va Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi yoshlar bandligini ta'minlash, ulami tadbirkorlikka jalb qilish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratgan. Bu borada yoshlar sanoat zonalarini muhim iqtisodiy maydonga aylanib ulgurdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

— Tumanimizdagi yoshlar sanoat zonasida hunarmandlik faoliyatini yo'lga qo'yganim. Bugungi kunda yog'ochni qayta ishlash va mebel

ishlab chiqarish bilan shug'ullanib, nafaqat o'zimizni, balki 4 tengdoshimni ham ish bilan ta'minladim, — deydi Ayoqchi mahallasida yashovchi yosh tadbirkor Shohrux O'razmetov.

Yog'ochni qayta ishlash va mebel ishlab chiqarish sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qurilish va uy-joy bozori kengayishi, aholi daromadlari oshishi hamda zamonaviy interyerga talab yuqoriligi ushbu tarmoq rivojiga

Raqamli transformatsiya soliq tizimini nazorat qiluvchi, xizmat ko'rsatuvchi, ishonchli va insonparvar institutga aylantirishga yaqqol misoldir.



Proaktiv hisobotlar, raqamli xizmatlar va kameral tekshiruvlarning avtomatlashtirilishi tadbirkor uchun faqat texnik qulaylik emas, balki iqtisodiy erkinlik va strategik ishonchni ham taqdim etadi.



orqali iqtisodiy samaradorlik ta'minlanishi bilan birga jamiyatda barqarorlik, adolat va innovatsiya muhiti ham mustahkamlanmoqda.

Ikkinchi muhim yo'nalish sifatida mamlakatimizda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va zamonaviy axborot tizimlari asosida takomillashtirish ishlari izchil bajarilmoqda. Bu texnik yangilik, davlat va tadbirkorlik o'rtasida iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlash va yashirin aylanmalarni qisqartirish bilan bog'liq strategik jarayondir.

Farmon talablariga asosan soliq organlarining axborot tizimlariga qator yangilik va qo'shimchalar kiritildi. Masalan, ta'sischisi yoki rahbarlari soliqdan bo'yin tovlagan korxonalarga QQSni tezlashtirilgan tartibda qaytarmaslikning texnik imkoniyati yaratildi. Bu tadbir nafaqat qonuniy tadbirkorlikni rag'batlantirish, balki adolat va mas'uliyat muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Shu bilan birga, soliq organlari ustav kapitali va undagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron taqdim etish va hisobga qo'yish imkoniyatini ham yaratdi. Bu tadbir tadbirkorlar uchun vaqt va ma'muriy yukni kamaytirish, soliq hisobotlarining aniqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Elektron hisobvara-q-fakturalarda litsenziyalanadigan faoliyat bo'yicha tovarlar sotilayotganini avtomatik tekshirish imkoniyati ham joriy qilindi. Bu esa iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta'minlash va yashirin aylanmalarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kameral soliq tekshiruvlari natijasi bo'yicha taqdim qilingan asoslar ko'rib chiqilgan haqida xabardor qilish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu soliq to'lovchilarning huquqiy ongini mustahkamlab, davlatga ishonchini ta'minlaydi. Qurilish pudrat shartnomalarini soliq organlarida hisobga olish imkoniyati amaliyotga joriy etilib, markazlashgan qurilishlar bo'yicha elektron hisobvara-q-fakturada "kapital_ID"ni ko'rsatish orqali Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan integratsiya ta'minlandi. Bu tadbir sarmoya va qurilish loyihalarining shaffofligini ta'minlaydi, tadbirkorlar uchun barqarorlik va aniqlik yaratadi.

Shuningdek, import qilingan oziq-ovqat mahsulotlari muayyan muddatda sotilmagan va qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravaridan ortiq bo'lgan holatlarda sayyor tekshiruvga nomzod shakllantirish bo'yicha xavfni tahlil qilish tizimiga yangi mezonlar kiritildi. Bu tadbir iqtisodiyotdagi resurslarni samarali taqsimlash, tahdidlar va xavflarni oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

zamonaviy, yuqori samaradorlikka ega isitish qozonlariga talab kun sayin ortib borayotir. Shu bois, mahsulotlarimizga talab katta. Ayniqsa, energiya tejovchi va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega qozonlar xonadonlarning hamda ofis binolari uchun qulay va iqtisodiy yechim hisoblanadi, — deydi tadbirkor yigit J. Qodirov.

Bu sohada mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirish esa import o'rini bosish, mahsulot tannarxini pasaytirish va ichki bozorni barqaror ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish, muhandislik va texnik mutaxassislarni tayyorlashga yo'l ochadi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bugun yurtimizda 22 milliondan ziyod yosh ulkan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuch sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Shu bois, Prezidentimiz yaqinda yoshlar bilan uchrashuvda barcha darajadagi rahbarlar yoshlarni til va kasb-hunariga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya va startaplarni qo'llab-quvvatlash, ishlari va daromadli qilish bo'yicha yanada faol ishlashi shartligini alohida ta'kidladi. Har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelayotgani, 2030-yilga borib bu ko'rsatkich 1 millionga yetishi kutilayotgani esa yoshlar bandligini ta'minlash masalasini strategik ahamiyatga ega vazifaga aylantirib qoldirdi.

Taxtako'pir tumanidagi Aydinjol mahallasida tadbirkor Muhametjon Sulaymonov tomonidan zamonaviy tez tayyorlanadigan taomlar markazi ochildi. Loyiha imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan bo'lib, bu mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlarning amaliy natijasidir. Yangi shoxbochaning ishga tushirilishi natijasida bir necha ish o'rini yaratilib, yoshlar bandligini ta'minlash imkoni kengaydi.

ma'murchiligi samaradorligini oshirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun tegishli normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish topshirilgan. Bu jarayon nafaqat qonuniy bazani, balki tadbirkor va davlat o'rtasidagi ishonch muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugun farmonda belgilangan topshiriqlar asosida bir qonun va Vazirlar Mahkamasining to'rtta qarori loyihalarini ishlab chiqildi. Bu hujjatlar zamonaviy soliq ma'murchiligi uchun aniq yo'nalishlarni belgilaydi. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi hamda iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi.

Tadbirkorlikdagi har bir qadam, oila rejasini va davlat moliyaviy siyosati o'rtasidagi uzluksiz bog'liqlik iqtisodiyotning hamma jihatini bog'lab turgan hayotiy muvozanatdir. Yangi O'zbekistonda soliq tizimining zamonaviy transformatsiyasi texnik va normativ yangilanishlardan iborat bo'libgina qolmay, iqtisodiy muhitni mustahkamlaydigan jarayon. Soliq tizimi, eng avvalo, davlat va tadbirkorlik, inson va iqtisodiy imkoniyatlar o'rtasida ishonchning ko'zgusidir.

Zamonaviy soliq ma'murchiligi jazodan rag'batga o'tishning yaqqol misoli. Unda nazorat va tekshiruvlar faqat adolat va shaffoflikni ta'minlash uchun xizmat qiladi, tadbirkorlar esa o'z rejasini erkin va aniq shaklda to'vobga chiqarishi mumkin. Proaktiv hisobotlar, raqamli xizmatlar va kameral tekshiruvlarning avtomatlashtirilishi tadbirkor uchun faqat texnik qulaylik emas, balki iqtisodiy erkinlik va strategik ishonchni ham taqdim etadi. Endi tadbirkorning harakatlari jazodan qochish yoki noma'lum xavfdan qo'rqish emas, balki samarali sarmoya kiritish, yangi ish o'rinlari ochish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga qaratiladi.

Soliq tizimi xalq va davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ramzidir. Undagi shaffof va barqaror muhit har bir oilaning kundalik hayotiga ta'sir qiladi: xarid qobiliyati, sarmoya kiritish imkoniyati, ijtimoiy barqarorlik va kelajakka ishonch shulardan iborat. Narx barqarorligi va inflyatsiyani jilovlash ham aynan shu ishonchni saqlash bilan bog'liq. Agar pul qadri saqlansa va iqtisodiy muhit prognoz qilinadigan bo'lsa, har bir fuqaro va tadbirkor o'z xatti-harakatini ishonch bilan rejalashtirishi mumkin. Inflyatsiya esa bu ishonchni susaytiradi, ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar samaradorligini pasaytirib, innovatsiya va sarmoya kiritishga to'siq bo'ladi.

Shu nuqtayi nazaridan, soliq tizimini raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari asosida modernizatsiya qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi, balki yashirin iqtisodiyotni qisqartirib, adolat va ishonch muhitini mustahkamlaydi. Bu jarayonda davlat va tadbirkorlik o'rtasidagi hamkorlik o'zining haqiqiy ma'nosini topadi: nazorat va qonuniyligi bilan rag'bat va erkinlik o'zaro uyg'unlashadi.

Bundan tashqari, zamonaviy soliq tizimi iqtisodiy o'sishning sifati va barqarorligini belgilaydigan markaziy institutdir. U faqat raqamlar, hisob-kitoblar va byurokratiya bilan chegaralanmaydi. Aksincha, har bir xonadon hayotida, tadbirkorning rejalarda, oilalarning kelajakka ishonchida o'z aksini topadi. Soliq tizimi orqali iqtisodiy aylanmalar shaffoflashadi, sarmoya va resurslar samarali taqsimlanadi, yangi ish o'rinlari va innovatsion loyihalar uchun imkoniyatlar ochiladi.

Shu bilan birga, soliq ma'murchiligini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirish iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirish barobarida jamiyat ongida ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

— Biz, yoshlarga davlatimiz yaratayotgan imkoniyatlardan mamnunmiz, — deydi tadbirkor Muhametjon Sulaymonov. — Kelgusida ish faoliyatimizni yanada kengaytirib, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va qo'shimcha xizmat turlarini yo'lga qo'yishni rejalashtirganman.

Chimboy tumani Gujumi mahallasida istiqomat qiluvchi yosh tadbirkor Bektursin Mirzaboyev ustoz Janaboy Saparovdan kreativ uslubdagi stol va o'rindiqlar yasashni o'rgangan. Ustaxonasida zamonaviy asbob-uskunalar yordamida aholi didiga mos mahsulotlarni buyurtma asosida tayyorlab beryapti. Noan'anaviy uslubda ishlangan ushbu mahsulotlarga ko'plab xaridorlar topilmoqda.

— Hozirgi paytda hunarmandlarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Hatto bir oyda 100 million so'mgacha daromad topsa bo'ladigan darajaga yetishdik, — deydi chimboylik hunarmand Odilboy Tojmuratov. — Qoraqalpog'istondagi barcha tadbirkorlar uchun imtiyozlar ko'p. Ulardan unumli foydalanib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga o'z hissamizni qo'shishga doimo tayyormiz.

Yoshlar sanoat zonalarini imtiyozli yer maydoni, kredit, infratuzilma va maslahat ko'magi taqdim etuvchi samarali mexanizm hisoblanadi. Bu maydonlarda yoshlar o'z g'oyasini amalga oshirish, tadbirkorlikni boshlash va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Hukumatimiz qo'llab-quvvatlayotgan yoshlar tadbirkorligi esa iqtisodiyotni jonlantirib, innovatsiyalarni rag'batlantirish, yoshlar bandligini ta'minlash va ularni jamiyatning faol a'zosiiga aylantirishdek xayrli maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Avollar va bolalarga nisbatan tazviq va



2026-yil 17-mart, 51-son

Abdulla Oripov adabiyot maydoniga qadam qo‘ygan ilk paytlaridayoq ijodiy yo‘nalishini ruhiy mustaqillik va imon hujjati sifatida belgilab oldi. Shoir uchun she‘r tashqi olamning shunchaki aksi emas, balki inson botinidagi hurlik va mag‘rurlikning badiiy ifodasidir. Muallifning “Sozim” she‘ridagi muqaddima nafaqat lirik iqrar, balki ijodkorning butun bir hayotiy manifestidek yangraydi:

**Men shoirman,
Istangiz shu,
O‘zimmiki erur shu sozim,
Birovlardan olmadim tuyg‘u...**

**Munisjon HAKIMOV,
O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi bo‘lim
mudiri, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori**

Bu misralarda zamon va muhit bosimidan baland turuvchi, o‘zligini anglagan shaxs ovozi ustuvorlik qiladi. “Birovlardan olmaslik” ma’naviy qaramlikdan xalos bo‘lish, tuyg‘u’lar sofligini va aslligini saqlab qolishdir. Ijodkor o‘z ruhiy hududini shu qadar qat’iyat bilan himoya qiladiki, hatto “mijg‘ov va pastkash, g‘iybat gaplar” uning ijod osmonini bulg‘ay olmaydi. Bunday mag‘rurlik kibr emas, balki so‘z mas’uliyati oldidagi sodiqlikdir.


Abdulla Oripov ijodida jamiyat tahlili shunchaki bugungi kunning ijtimoiy manzaralari bilan cheklanib qolmay, balki insoniyatning ibtidoiy ildizlarigacha bo‘laydi. Shoirning “Yuzma-yuz” dostoni tarix falsafasini anglashda muhim ma’naviy kalit vazifasini o‘taydi. Muallif inson evolyutsiyasini “mamontlar to‘dasi” chiqqan ibtidoiy davridan boshlaydi. Biroq asarning mag‘zi mamontning yengilishi yoki jismoniy jang tasvirida emas, balki inson ongida sodir bo‘lgan “ilk ma’naviy xiyonat” nuqtasidadir:

O‘sha kun buzildi azaliy udum,
Uni inson o‘zi buzib tashladi.
Kunduzgi oshkora o‘g‘rilar day u
O‘ljasin uy-uyga torta boshladi.

Bu satrlarda nafsning jamoaviy imon va tartib ustidan hukmronligi dunyodagi barcha kulfatlarning debochasi sifatida talqin qilinadi. Shaxsiy manfaatning umuminsoniy qadriyatlardan ustun qo‘yilishi tarixni “zulmat” va “qon” bilan bulg‘adi. Shoirning fikricha, insoniyatni bog‘lagan ma’naviy inqiroz aynan o‘lja talashish boshlangan lahzada tug‘ilgan. Bu insoniyatning o‘z asl tabiatidan va haqiqat yo‘lidan adashishi haqidagi achchiq xulosadir.

Tarixning qonli sahifalarini varaqlar ekan, ijodkor Spartakning haq talashishidan tortib, Sezarning nayzasiyu Chingizxonning cho‘qmorigacha bo‘lgan fojialarni bir falsafiy zanjirga tizadi. Dunyoning “adashib ketgani” haqidagi fikr shoirning yoshlikdagi g‘o‘rligi emas, balki olamning ziddiyatli qonuniyatlarini teran anglashidir. Bu tarixiy silsila ichida shaxs va muhit munosabati yangicha ma’no kasb etib, yaxshilik donini ekanlarning “yomon” deb nom olishi jamiyatning azaliy hamda og‘riqli paradoksi sifatida ochib beriladi.

Shoir dunyodagi haqsizlikning mangulikka da’vo qilishiga qarshi isyon ko‘taradi. Uning



nazarida, najot ruhiy tiklanishda, ya’ni “yoshlik sofligi” deb atalgan o‘sha ma’sum manzilga qaytishdadir. Faqat istiqbol deb atalgan ezgu niyatgina insonga uning asl sofligini qaytarib bera oladi.

Abdulla Oripov tarixni faqat o‘tmish emas, balki bugungi kunning ma’naviy ko‘zgusi va kelajakning poydevori sifatida tadqiq etadi. Bu bosqichda shoir insonni o‘z ichki dunyosini tafitish qilishga, ya’ni “to‘da” bo‘lib o‘lja talashmaydigan, nafs qulligidan ozod, sof va imonli holatga qaytishga chorlaydi. Tarixning iztirobli saboqlari orqali u insonni o‘zligini anglashga va ruhiy poklanishga da’vat etadi.

Uning ijodida shaxsning jamiyatdagi o‘rni shunchaki ijtimoiy maqom bo‘lmay, balki vijdon va mas’uliyat mezonini belgilanadi. Shoirning falsafiy tafakkurida “olomon” va “xalq” tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan ikki qutb sifatida gavdalanadi. Muallifning “Olomonga” she‘ridagi o‘tkir va iztirobli savollar jamiyatning ma’naviy mudroqligiga berilgan badiiy zarbadi:

**Mashrab otilganda qayoqda eding?
Cho‘lpon otilganda qayoqda eding?
Surishtirganmiding Qodirini y
Qalqon bo‘lganmiding kelganda balo?**

Bu misralarda shoir olomonning eng qo‘rqinchli qiyofasi — loqaydligi va tomoshabinligini fosh etadi. O‘lomon uchun tarixdagi buyuk fojialar, millat fidoyilarining qurbon bo‘lishi shunchaki bir “tomosha”. Uning “nomidan hukmlar o‘qilishi” esa mas’uliyatsizlikning oliy ko‘rinishidir. Shoir olominni xalq bo‘lishga, ya’ni o‘zligini anglagan, tarix va kelajak oldida javobgarlikni his etadigan

yaxlit ma’naviy kuchga aylanishga da’vat etadi. Shaxsning to‘da ichida yo‘qolib qolish xavfi “To‘da” she‘rida yanada teranroq tahlil qilinadi. To‘da — shaxsiyatsizlik va irodasizlik makoni. Unda har qanday buyuklik, har qanday alohidalik “to‘daning fe’li” oldida zavol topishi mumkin. Shoirning “To‘dani ko‘rganda qo‘rqib ketaman”, degan iqrori zamirida ming yillardan buyon saqlanib kelayotgan ibtidoiy shafaqatsizlikdan xavotir yotadi:

**Agarda qo‘zisa to‘daning fe’li,
Xos teng kelolmas soylarning seli.
Unga yovuzlik, shafaqatsizliklar,
Qorni to‘q bo‘lsa-da, toqatsizliklar.**

Bu yerda “toqatsizlik” o‘zgacha fikrni, yuksak iste’dodni va mustaqil irodani qabul qilolmaslikdir. Abdulla Oripov nazdida xalq bo‘lish to‘da psixologiyasidan xalos bo‘lish, vijdon amri bilan yashash demakdir. Shoir “Yuzma-yuz” she‘rida ta’kidlaganidek, “inson inson uchun to‘ka olsa yosh” va “bir safda tursa odamlar”, ana shundaygina olomon xalqqa aylanadi.

Muallif jamiyatning har bir a’zosini o‘z ichki olamiga boqishga, soxta “ura-uralar”dan voz kechib, “insof va vijdon” chegarasini tan olishga undaydi. U vijdon uyg‘onishini to‘daning hissiz oqimidan ajralib chiqib haqiqatning tik nigohiga dosh bera olishda deb biladi. Shoirning butun ijodi mana shu ma’naviy yuksalishga — shaxsni olomon zulmatidan xalqning nurli ufqlariga olib chiqishga xizmat qiladi.

Faylasuf shoir ijodida inson shunchaki jismoniy mavjudot emas, balki asrlar davomida shakllangan ma’naviy merosning, qon va ruh irsiyatining

davomchisi sifatida talqin qilinadi. Shoirning falsafiy mushohadalarda genetika tushunchasi biologik qonuniyatlardan yuksalib, milliy o‘zlikni anglashning tarixiy zanjiriga aylanadi. Uning “Genetika” she‘ri bu borada inson ruhiyatining teran qatlamlarini ochib beruvchi eng salmoqli asarlardan biridir:

**Bilmadim, qonimda qay ajdod yashar,
Balki bobo Kayfiy, balki Ulug‘bek...
...Tunlar qulog‘imga chalinar elas,
Tulpolar kishnashi, otlar gurrosi.**

Muallif inson tanasida oqib turgan qonni ming yillik tarixning ovozi deb biladi. Bu yerda “bilamayman” deyish orqali ijodkor inson tabiatining naqadar murakkabligiga va uning botinida mudrab yotgan ulkan kuchlarga ishora qiladi. Qonda faqat tashqi qiyofa — “qosh-ko‘z” emas, balki ajdodlarning fe’l-atvori, orzu-armonlari va shiddati ham meros bo‘lib o‘tadi. Ulug‘bekning zakiiy nigohi yoki Muqannaning tinim bilmas isyonkor ruhi avlodlarning ichki olamida qayta uyg‘onishi milliy irsiyatning boqiyligidir.

Shoirning talqinida bu meros faqat zafarlardan iborat emas. Unda “dardbadar bir oshiq”, “sarbador” va hatto “shahanshoh”ning ham asoratlari bor. Inson o‘z vujudida ham hukmdorlikka intilish, ham darveshlikka moyillik kabi ziddiyatli kuchlarni tashib yuradi. Bu millat xarakterining murakkab falsafasidir. “O‘zbekiston” qasidasida mazkur g‘oya yanada kengroq miqyosda, vatan taqdiri bilan uyg‘unlikda davom ettiriladi. Tarixning shiddatli sinovlari, Jaloliddinning Amudaryodan sakrashiyu Sobir Rahimovning zafarli qadami — bari-bari bugungi avlodning qonida yashiringan



Qadriyat

ASRLAR OSHA HAMROH – NAVRO‘ZI OLAM

Bugun o‘lkamizda eshik qoqib turgan Navro‘zi olamning milliy-ma’naviy mohiyati xalqni birlashtirish, bag‘rikenglik, tabiatsevarlik va mehr-saxovat xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan. Bu yilgi bayramning qo‘shaloq kelishi, ya’ni muborak Ramazon hayiti bilan birga nishonlanishi ushbu ayyomning mazmun-mohiyati va insoniylik xususiyatlarini yanada boyitadi, shukuhini quvunch-u shodlik, shukronalik bilan yuksaltiradi.



Aslida, xalqimizning milliy-ma’naviy mohiyat kasb etadigan bayramlari ko‘p. Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston o‘ziga xos turli udum, urf-odat, an‘ana hamda ular asosida shakllangan

marosim va bayramlarga boy hudud. Bularning aksariyati qadriyatga aylanib, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida kelmoqda. Shu bilan birga, ular zamon talabiga binoan shakl-shamoyilini muayyan darajada o‘zgartirib,

takomillashib bormoqda, ammo tub mazmun-mohiyati saqlanib qolayotir.

Millatni har qanday jihatdan o‘rganishga kirishgan ilm-fan unga xos qadriyatlarini chetlab o‘tmaydi. Boisi, bu qadriyatlar millat bilan barobar shakllanib, mohiyatan uning borlig‘iga singib kergan hamda millatni shakllantirish, tarbiyalash va kamolotga yetkazishda faol ishtirok etadi. Jumladan, Navro‘z ham.

Mazkur bayramning qiymatini oshiruvchi yana bir xususiyati tarbiyaviy ahamiyatidir. XXI asr globallashuvga keng quchoq ochdi. U fan-texnika yutuqlari va umuminsoniy tamoyillar asosida yanada yetuklik sari qadam bosmoqda. Bu esa yangidan yangi tamoyil va voqeiklarning barcha millatlar uchun barobar bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarga aylanib

borishiga zamin yaratmoqda. Biroq Mahatma Gandi e’tirof etganidek, quyosh taftiga yuzlanish uchun derazamizni ochganimizda ichkariga nafaqat nur va toza havo, balki ular bilan birga chang va g‘ubor ham kirib kelishini unutmaslik lozim. Demak, globallashuvning ijobiy xususiyatlari bilan yetkazishi mumkin bo‘lgan salbiy jihatlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bunday salbiy hodisalar milliy xususiyatlarining yemirilib borishiga sabab bo‘lishi mumkinligini inobatga olib, ularga qarshi milliy g‘ururmi qalqon qilish, shuningdek, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, globallashuv sharoitida Navro‘zning tarbiyaviy mohiyati yanada teranlashadi.

Navro‘z ayyomi sumalak pishirish, kelinsalom, gul bazmi kabi ommaviy tomoshalar, yerga birinchi urug‘ni qadash singari mehnat bilan bog‘liq, birdamlik ruhini uyg‘otuvchi marosimlar, shuningdek, hashar, kekxa va bemorlardan xabar olish, arazlashganlarni yarashtirish kabi milliy uyushqoqlikni shakllantiruvchi urf-odatlarini

aks ettiradi. Bu holat uning shunchaki bayram shodiyonasi emas, balki tizimli tarzda tartibga solingan va uzviylik kasb etgan yaxlit qadriyat ekanini ifodalaydi. Navro‘z ana shunday buyuk kuch sifatida istilochi-yu mustabidlarni doim cho‘chitgan. Shu bois, bosqinchilar hamisha Navro‘zga va boshqa milliy qadriyatlarimizga hujum qilib kelgan.

“Sumalakdan tosh topdim”

Sumalakning hanuzgacha qadrlanishi va har qancha tazyiqlarga qaramay, xalqimizning uni har bahorda pishirishdan voz kechmaganing bir qancha sababi bor. Birinchidan, u qishdan chiqib, el ta’biri bilan aytganda, “iligi qurigan” insonga darmon baxsh etadi. Ikkinchidan, xalqimizda azaldan don va non ulug‘lanib, e’zozlab kelingan. Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy sharoitga ko‘ra qadimdan dehqonchilikka moslashgan. Yer, suv, ekin, xususan, bug‘doy va uning hosilasi bo‘lmish nonning ulug‘lanishida hududga xos iqtisodiy turmush tarzi bilan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin. Bu qadriyat, o‘z

“genetik quvvat” sifatida tasvirlanadi.

Abdulla Oripov uchun irsiyat zanjirini anglashning bosh belgisi kelajak oldidagi mas’uliyatni his qilish demakdir. Biz faqat o‘tmishning merosxo‘rlari emas, balki kelajakda tug‘ilajak “eng oliy inson, mukammal zot”ning zaminini hamdirmiz:

Rishtayi jonida bir zarra bo‘lib,
Bizning ham qonimiz gurguray, rost bu...
...Labda tabassumu ko‘zda yosh bilan
Senga talpinaman, buyuk nabiram...

Shoirning ushbu xulosasi insoniyatning ma’naviy uzviyligi haqidagi buyuk haqiqatdir. Inson o‘z ajdodlarining “turfa xislatini” qonida tashib yurar ekan, u hech qachon ildizsiz bo‘la olmaydi. Bu qon bizni “shu qadim dunyo”ga va “qon bilan, ter bilan qotgan shu tuproq”ga bog‘lab turuvchi eng mustahkam ilohiy rishdardir. Genetik xotiraning uyg‘onishi esa shaxsni olomonlikdan xalq darajasiga ko‘taruvchi eng oliy ma’naviy jarayondir.

Shoir she‘riyatining ma’naviy quvvati shundaki, u jamiyatning zohiriy farovonligi ortiga yashiringan axloqiy inqirozlarni o‘tkir nigoh bilan payqaydi va ularga aniq badiiy tashxis qo‘yadi. Uning hajviy va falsafiy mushohadalarida insonning asl qiyofasi va u taqib yurgan ijtimoiy niqoblar o‘rtasidagi ziddiyat ayovsiz fosh etiladi. “Taklifnoma” she‘ri bu borada ijtimoiy munofiklikning eng oddiy, ammo eng og‘riqli manzarasini chizib beradi:

So‘kar dunyo degan bir g‘amxonani,
Kiborlarni so‘kar g‘azabga to‘lib.
Va lekin to‘y qilsa, “Taklifnoma”ni
O‘shalgara eltar birinchi bo‘lib.

Gap shunchaki to‘y haqida emas, balki insonning o‘z so‘zi va amali o‘rtasidagi jarlik haqida bormoqda. Tilida la’natlagan kuchlariga amalda talpinish shaxsning ma’naviy ikkiga bo‘linishidir. Shoir bunday holatni jamiyatning ruhiy xastaligi deb biladi. Ikkiyuzlamachilik Abdulla Oripov talqinida insonning o‘zligidan kechishi va manfaat zanjiriga bog‘lanishidir.

Muallifning ijtimoiy tashxisi “Martaba” she‘rida yanada dahshatliroq tus oladi. Unda ikki kishining o‘z ajdodlari qanday qatl etilgani bilan maqtanishi (birini “bosh jallod so‘ygani”, ikkinchisini “papak arqonda osishgani”) jamiyatdagi qadriyatlar tizimi naqadar ostin-ustun bo‘lib ketganini ko‘rsatadi. Insonlar o‘z qadr-qimmatini emas, balki kimningdir qo‘lida qurbon bo‘lish usulini martaba deb bilishi ruhiy quklilikning yuqori nuqtasidir. Shoir bu orqali mutetlik va soxta g‘urur qon-qonimizga singib ketganini achchiq zaharxanda bilan bayon etadi.

Jamiyatdagi ma’naviy tubanlikning yana bir ko‘rinishi “Ikki xushomadgo‘y” va “Lo’tiboz” she‘rlarida davom ettiriladi. Shoir “vijdonli odamlar organi sayin, lo’tiboz soni ham ko‘payib borar”, deya ta’kidlar ekan, axloqsizlikning tashkiliy shakllardan ogohlanirdi. Xushomadgo‘ylik shaxsning ichki niqobi bo‘lib, u “tovonidan tortib tizzasigacha yalash” orqali o‘zligini toptaydi.

Shoirning hassos tafakkuri millatning kelajagiga bo‘lgan cheksiz ishonch bilan sug‘orilgan. U “Alisher” she‘rida ta’kidlaganidek, besh yuz yil buyuk siymolar uchun shunchaki bir lahza. Abdulla Oripov o‘z ijodi orqali milliy genetikani uyg‘otishga, olominni xalq darajasiga ko‘tarishga harakat qildi. Uning she‘riyati millatning ruhiy pasportidir. Abdulla Oripov qoldirgan ma’naviy meros “sarob”lar ichida haqiqatni topish, “to‘da”lar ichida shaxs bo‘lib qolish va har qanday sinovda imon madadiga suyanish darisligidir. Uning rang-barang va sof she‘riyati asrlar osha “buyuk nabiralar” qonida gupuriib, millatning ruhiy zafaridan dalolat berib turaveradi. Zero, shoir aytganidek, vujud o‘tar, bahorlar o‘tar, ammo ma’naviy mustahkamlik va hur fikr dunyoda mangu qolajak.

navbatida, bir qancha urf-odat va amallarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Masalan, xalqimizda yerga tushgan non uvog‘ini ko‘zga surtish, beshikdagi go‘daklarning yostig‘i ostiga non qo‘yish, safarga otlamayotganlarga non tishlatib qolish va “non ushatish” marosimlari asrlar davomida shakllanib kelgan. Turgan gapki, bug‘doy undirilib tayyorlanadigan sumalak ham xuddi shunday ulug‘lanadi.

Navro‘z kunlari qadimdan obodonlashtirish ishlari bajarilgan. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hududlarda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini o‘tkazish, shuningdek, “Men ham ko‘chat ekaman” aksiyasini tashkil etishning tarixiy va milliy-aksiologik asoslari mavjud. Ya’ni qadimdan ajdodlarimiz daraxtni boylik va to‘kinlik ramzi sifatida qadrlagan. Ular har Navro‘zda — o‘zlarining “yangi yili”da, shuningdek, farzand dunyoga kelganda daraxt ekib, nihollarni go‘dakdek avaylab parvarish qilgan. Shu daraxtning soyasida orom olish yoki mevasidan bahramand bo‘lgan yo‘lovchining duosi olinishini ulkan savob deb bilgan. To‘g‘ri, bu an‘analar muayyan muddat bir oz unutilgandek bo‘ldi. Biroq bugun milliy bayram va qadriyatlarimizga e’tibor kuchayishi asnosida ayni odatlar yanada keng quloch yozmoqda.

**Shahlo AHROROVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti yetakchi ilmiy xodimi, falsafa
fanlari doktori**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

МУАССИС:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05